

O'zbekiston Prezidenti Qozog'iston Prezidenti bilan telefon orqali muloqot qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Suhbatda davlat rahbarlari Qozog'istondagi vaziyatning rivojlanishi, respublikadagi holatni barqarorlashtirish, tez fursatda tinchlik va osoyishtalikni qayta tiklash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan fikr almashdilar.

O'zbekiston yetakchisi Qozog'istonning birodar xalqi va rahbariyatini ularning mamlakat barqarorligi va farovonligini ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlarida doimo qo'llab-quvvatlashini yana bir bor tasdiqladi.

Manba